

# **Termiz shahrida 600 o'rini "Ay-Ti" maktab qurish loyihasi taqdimot qilindi**



Termiz shahrida 600 o'rini "Ay-Ti" maktab qurish loyihasi taqdimot qilindi

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahrida "Al-Xorazmiy axborot texnologiyalar maktabi" nodavlat ta'lif muassasasi tomonidan tashkil etilgan zamonaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda bolalarning ta'lif-tarbiya olishlari, sport bilan shug'ullanishlari va xorijiy tillarni o'rganishlari uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan.

Ushbu maktabgacha ta'lif tashkilotining erishgan yutuq va to'plagan boy tajribasi e'tirof etilib, tadbirkorning sohadagi tajribasini ommalashtirish maqsadida Termiz shahridagi eng og'ir holatda bo'lgan 6-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkilotiga biriktirildi.

Shuningdek, shu yerning o'zida Termiz shahrida 600 o'rini axborot texnologiyalarini chuqur o'qitishga mo'ljallangan "Al-Xorazmiy axborot texnologiyalari "IT" maktabi" nodavlat mакtab qurish loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Viloyat rahbari nodavlat axborot texnologiyalari maktabi qurish loyihasi bilan tanishar ekan, tashabbusni to'liq qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilib, o'zining taklif va tavsiyalarini bildirdi hamda mas'ullarga tadbirkorning ushbu loyihasini amalga oshirish uchun zarur yordamlarni ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.



